



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Xamidova Diyora Rustam qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

tayanch doktoranti

diyora1021192@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning ahamiyatli jihatlari, hamda, ijodkor, mustaqil fikrlaydigan, yangilik yaratishga qodir shaxslarni tarbiyalash jamiyat taraqqiyoti uchun zarurati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, shaxs, ijodkorlik, yangilik, taraqqiyot, mustaqil fikr, o'quvchi, pedagog, o'qituvchi, innovatsiya, boshlang'ich sinf

Abstract

This article discusses the important aspects of developing the creative abilities of primary school students in improving the quality and efficiency of education today, as well as the need for the development of society to educate creative, independent-thinking, and innovative individuals.

Keywords: education, upbringing, personality, creativity, innovation, development, independent thought, student, educator, teacher, innovation, primary school

Аннотация

В статье рассматриваются важные аспекты развития творческих способностей учащихся начальной школы для повышения качества и эффективности современного образования, а также необходимость развития общества в целях воспитания творческих, самостоятельно мыслящих и новаторских личностей.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th November, 2025

Ключевые слова: образование, воспитание, личность, творчество, инновации, развитие, самостоятельность мышления, ученик, воспитатель, учитель, инновации, начальная школа

Bugungi kunda butun dunyoda barcha sohalar kabi ta'lim tizimi ham shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Jamiyatning har bir a'zosi mustaqil fikrlay olishi, yangilik yarata olishi, kreativ yondasha bilishi davlat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida boshlang'ich ta'limga alohida e'tibor qaratilib, yosh avlodning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2029- yil 8-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PK5847-sonli qaroriga muvofiq oliy ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor vazifalari etib qo'yidagilar belgilab berilgan.

Boshlang'ich ta'lim - bola shaxsining shakllanishi, uning qiziqishlari motivatsiyasi, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkuri rivojlanishida asosiy poydevor hisoblanadi. Aynan shu davrda bola atrof-muhitga faol qiziqadi, yangi g'oyalarga ochiq bo'ladi, fantaziyasi eng yuqori bosqichda namoyon bo'ladi. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish nafaqat pedagogik zarurat, balki zamon talabi hamdir. Ijodkorlik o'quvchilar egallayotgan bilimlarining mustahkamligi va mukammalligini ta'minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish - zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki ijodkor, mustaqil



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th November, 2025

fikrlaydigan, yangilik yaratishga qodir shaxsni tarbiyalash jamiyat taraqqiyoti uchun zarur. Innovatsion metodlar, faol ta'lim texnologiyalari, raqamli vositalar va o'qituvchi-professionalning to'g'ri yondashuvi bolalarda ijodiy potentsialni to'liq ochishga imkon beradi.

Ijodiyot va ijodiy fikrlash yuzasidan olimlarning nazaryalariga qaraydigan bo'lsak, ular o'z fikrlarida ijodkorlikning o'ziga xos xususiyat ekanligini takudlab o'tishgan. Ijodiyot(kreativlik) - bu shaxsning yangi, noyob, samarali va o'ziga xos g'oyalarni yaratish qobiliyati. Psixologlar (Guilford, Torrens, Vigotskiy, Ushinskiy va boshqalar) ijodkorlikni quyidagi mezonlar orqali talqin qiladilar:

- Original fikrlash
- Moslashuvchanlik
- Yangilikka intilish
- Divergent tafakkur
- Muammoni kreativ hal qilish

Torrensning tadqiqotlariga ko'ra, bola yosh bo'lgan sari uning tasavvuri keng, stereotiplardan holi bo'ladi. Shu bois boshlang'ich ta'lim - ijodkorlikni shakllantirishning eng qulay davridir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kelajakda raqobatbardosh bo'la oladigan shaxs – bu ijodiy fikrlay oladigan, yangi g'oyalar yaratishga qodir, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsdir. Shu bois O'zbekiston ta'lim tizimida ham ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish nihoyatda muhim, chunki bu davr bolaning tafakkuri eng faollashgan, tasavvuri keng, qiziqishlari kuchli bo'lgan davr hisoblanadi. Boshlang'ich sinfdagi o'quvchining olamni idrok etishida tasavvur, fantaziya, qiziqish va bilishga chanqoqlik ustuvor bo'lib, shu sifatlar bolada ijodiy fikrlashning poydevorini tashkil qiladi.

L.S. Vygotskiy ijodkorlikni bola tafakkurining tabiiy jarayoni deb hisoblab, unda o'yin faoliyati, tasavvur, nutq va amaliy tajriba muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

J. Guilford ijodkorlikni divergent fikrlash, ya'ni bir muammoning bir nechta yechimini topa olish qobiliyati sifatida ko'rsatadi.

Ijodiy qobiliyat – bu shaxsning yangicha fikr yurita olishi, mavjud ma'lumotlarga noan'anaviy yondashuvi, o'ziga xos va original g'oyalar yaratish qobiliyatidir.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th November, 2025

Psixologik adabiyotlarda ijodiy qobiliyat divergent fikrlash, tafakkur moslashuvchanligi, yangilik yaratish tendensiyasi, muammoni noodatij hal qilish qobiliyati kabi mezonlar orqali izohlanadi. Guilford va Torrance kabi olimlar kreativlikni inson tafakkurining eng yuqori shakli deb baholagan. Vygotskiy esa bolaning ijodiy tafakkuri uning o'yin faoliyatida, tasavvuri va nutqida eng yorqin namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Demak, bola kichik yoshdan ijodiy faoliyatga jalb qilinsa, undagi tabiiy ijodiy potentsial yo'qolmaydi, aksincha, yanada mustahkamlanadi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda diqqat barqarorlashadi, xotira rivojlanadi, axborotni tez qabul qilish qobiliyati kuchayadi. Ular atrof-muhitni o'rganishga qiziqadi, ko'proq harakatga, tajribaga ega bo'lishni istaydi. Fantaziya va tasavvur esa aynan shu yoshda eng yuqori bosqichga yetadi. Shu sababli ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar, o'yinlar, loyihalar, rasm va badiiy faoliyatlar aynan boshlang'ich sinflarda eng samarali natija beradi. Bu jarayonda o'quvchi mustaqil fikrlaydi, savollar beradi, taxminlar qiladi, o'z g'oyalarini himoya qilishga harakat qiladi. Bularning barchasi ijodiy qobiliyatning shakllanishi uchun asosiy omillardir. O'zbekiston ta'lim standartlarida ham kreativ fikrlash, muammoni hal qilish, axborotni tanlash, tahlil qilish va qayta ishlash ko'nikmalari asosiy kompetensiyalar sifatida belgilangan. Bu esa ijodiy qobiliyatni shakllantirishni boshlang'ich ta'limning eng muhim vazifalaridan biriga aylantiradi. Axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgan bugungi davrda o'quvchilarda raqamli ijodkorlikni rivojlantirish ham zarur. Raqamli grafikalar, animatsiya, oddiy dasturlash, multfilm yaratish, 3D modellashtirish kabi yo'nalishlar o'quvchilarda nafaqat texnik ko'nikmalar, balki tasavvur, kreativlik va muammoli vaziyatlarni yecha olish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shu bois maktablarda STEAM laboratoriyalarining tashkil etilishi juda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlar alohida rol o'ynaydi. Aqliy hujum, klaster, sinkveyn, insert, rolli o'yinlar, drammatizatsiya, muammoli vaziyat yaratish, kichik guruhlar bilan ishlash, loyihaviy ta'lim kabi metodlar o'quvchilarning erkin fikrlashiga, turli yechimlarni izlashga, o'z fikrini ishonch bilan bildirishga imkon yaratadi. Masalan, "Aqliy hujum" metodida o'quvchilar berilgan mavzu bo'yicha imkon qadar ko'proq



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th November, 2025

g'oya ilgari suradi, bu esa tafakkur moslashuvchanligini oshiradi. "Loyiha asosida o'qitish" metodida esa o'quvchilar loyiha yaratadi, rejalashtiradi, natijani taqdim etadi. Bu jarayon ularni ijodiy va tanqidiy fikrlashga undaydi. , boshlang'ich sinflarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ba'zi o'qituvchilar an'anaviy dars usullaridan voz kecha olmaydi, ijodiy topshiriqlarni qo'llashga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Ayrim maktablarda texnik vositalar yetishmasligi, metodik qo'llanmalar kamligi ham jarayonni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi har bir o'quvchining individual ijodiy rivojlanishini kuzatishni qiyinlashtiradi.

boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish - davr talabi, jamiyat ehtiyoji va ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Bugungi kunda ijodkor, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash - mamlakatning kelajak taraqqiyoti, innovatsion rivojlanishining poydevoridir. Ijodiy fikrlashni erta yoshdan rivojlantirish bolalarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ta'lim tizimida kreativ yondashuvni kuchaytirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan metod va texnologiyalarni keng joriy etish nihoyatda muhim hisoblanadi.

XXI asr – innovatsiyalar, texnologiyalar va raqamli taraqqiyot asri bo'lib, unda jamiyatning har bir a'zosi yuqori darajadagi bilim, malaka, dunyoqarash va eng muhimi – ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab qilinadi. Zamonaviy jamiyatning tezkor o'zgarishlari, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimidan ham mutlaqo yangi yondashuvni, yangicha fikr yuritishni, kreativ tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan metodlarni qo'llashni talab etmoqda. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi, qiziqishi, mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va ijodiy yondashuvi inson kapitalining tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, bola 6–10 yoshda ijodiy tafakkur, tasavvur va noodatiy fikrlashning eng yuqori potensialiga ega bo'ladi. Agar bu davrda ijodkorlikni rivojlantirishga e'tibor berilmasa, keyingi bosqichlarda bu imkoniyat sezilarli darajada pasayib ketishi mumkin.

Shu sababli bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish - nafaqat zamon talabi, balki ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th November, 2025

shakllantirish bugungi zamonning asosiy talabi va pedagogik zaruratidir. Ijodkor shaxsni tarbiyalash - davlat taraqqiyoti, jamiyat ravnaqi, innovatsion rivojlanishning poydevoridir. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda kreativlikni rivojlantirish, innovatsion metodlarni qo'llash, o'yin va loyiha texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchi shaxsini har tomonlama qo'llab-quvvatlash ta'limning eng ustuvor vazifasi bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son 23.09.2020
2. Shodiyev N.N. Rahimqulova M. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik. O'quv-uslubiy qo'llanma. - Samarqand: SamDU, 2019
3. Матюшкин А.М. Одаренность и возраст. Развитие творческого потенциала одаренных детей: Учебное пособие.М.: Воронеж,2004.
4. Urakov SH.R., Fayzullayeva G.Sh. "O'qituvchi kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish" (Uslubiy qo'llanma)
5. Hasanova K. Mahorati pedagogi. Darslik. Toshkent. 2019.

Elektron resurslar

1. www.edu.uz
2. www.bilim.uz
3. <http://elearning.zn.uz/>
4. <https://www.coursera.org/>